



O'ZBEK TALABALARI UCHUN INGLIZ TILI TALAFFUZDAGI ASOSIY MUAMMOLAR

Sobirjonova Laziza Elyor qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

Ingliz filalogiyasi fakulteti

2-bosqich 24.10-guruh talabasi

Email: lazizasobirjonova72@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek talabalarining ingliz tilini o'rganish jarayonida uchraydigan asosiy talaffuz muammolari tahlil qilinadi. Xususan unli va undosh tovushlarning farqlanishi urg'u va intonatsiya masalalari muhim muammo sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ona tilining inglizcha talaffuzga qanday tasir ko'rsatishi uning ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada talaffuzdagi xatolarni kamaytirish uchun zamonaviy metodlar ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat Ingliz filalogiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning shu bilan bir qatorda ingliz tilini mustaqil o'rganuvchi talabalarning ham nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, o'zbek talabalari, ona tilining tasiri, urg'u, intonatsiya, unli va undosh tovushlar.

Kirish

Bugungi globallashuv va zamonaviy texnologiyalar asrida ingliz tilini mukammal darajada bilish barcha yoshlar ayniqsa talaba yoshlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbek talabalari ingliz tilini o'rganish jarayonida grammatik bilimlardan tashqari talaffuz nuqtayi nazaridan ham bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Chunki o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi fonetik tizim sezilarli darajada farq qiladi.

Asosiy qism

Ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari ko'pincha talaffuz bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu muammolar asosan o'zbek va ingliz tillardagi tovushlar urgu' va intonatsiya tafovutlari bilan bog'liq. Quyida eng keng tarqalgan talaffuz qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi.

Ingliz va o'zbek tillari fonetik tizimidagi farqlar

Fonetik jihatga ko'ra ingliz va o'zbek tillari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. odatda o'zbek tilida tovushlar qay qanday tarzda talaffuz qilinsa shu tarzda yoziladi. Ingliz tilida esa aksincha yozilish va talaffuz o'rtasida juda katta farq mavjud. Masalan, **through, though, thought** so'zlariga o'xshash



tarzda yozilishiga qaramasdan, turlicha talaffuz qilinadi. O'zbek talabalari uchun esa bu holat to'g'ri talaffuz qilish jarayonini murakkablashtiradi. Bundan tashqari o'zbek tilida mavjud bo'lmagan ayrim tovushlar ingliz tilida mavjud. Shu sababdan ham yangi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda talabalar qiyinchiliklarga duch keladilar. Unli tovushlar talaffuzidagi muammolar ingliz tilida unli tovushlar soni o'zbek tiliga nisbatan ko'proq. Ingliz tilida qisqa va cho'ziq unlilar mavjud bo'lib, ular so'z ma'nosini o'zgartirishi mumkin

Masalan: **ship-sheep, full-fool, sit-seat**. O'zbek tilida esa bunday farqlanish holatlari kam uchraydi. Shu sababli o'zbek talabalari cho'ziq unlilarni qisqa talaffuz qilishlar yoki aksincha, qisqa unlilarni cho'zib yuborishlari mumkin. Bu holat noto'g'ri talaffuz va tushunmovchilikka sabab bo'ladi.

Undosh tovushlar bilan bog'liq muammolar:

Ingliz tilida o'zbek tilida mavjud bo'lmagan ayrim undosh tovushlar mavjud. Masalan, *o* va *ö* tovushlari o'zbek tilida mavjud emas. Talabalar ko'pincha:

think → **sink** yoki **tink**

this → **zis** yoki **dis**

tarzida talaffuz qiladilar.

Urg'u (stress) bilan bog'liq muammolar:

Ingliz tilida urg'u juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'z ma'nosini ham o'zgartirishi mumkin. Masalan, **record** so'zi ot bo'lsa birinchi bo'g'inga, fe'l bo'lsa ikkinchi bo'g'inga urg'u tushadi. O'zbek tilida esa urg'u odatda so'z oxiriga tushadi va ma'noni o'zgartirmaydi. Shu sababli o'zbek talabalari ingliz tilida urg'uga yetarlicha e'tibor bermay, so'zlarni bir xil ohangda talaffuz qilishga moyil bo'ladilar.

Intonatsiya muammolari:

Intonatsiya, ya'ni gap ohangi ham ingliz tilida muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida savol, buyruq va oddiy gaplar turli ohangda talaffuz qilinadi. O'zbek tilida esa intonatsiya nisbatan kamroq o'zgaradi. Natijada talabalar ingliz tilida savol gaplarni ham oddiy gap ohangida aytib qo'yishlari mumkin, bu esa muloqotda tushunmovchilikka sabab bo'ladi.

Ona tilining ta'siri (interference)

O'zbek talabalari ingliz tilida gapirayotganda ko'pincha ona tili qoidalariga tayangan holda talaffuz qiladilar. Bu hodisa lingvistikada interference deb ataladi. Masalan, ingliz tilidagi so'z oxiridagi undoshlarni tushirib qoldirish yoki ularga ortiqcha unli qo'shish holatlari uchraydi: **student** → **studenti**. Bu esa tabiiy inglizcha nutqqa xos bo'lmagan talaffuzni yuzaga keltiradi.

Talaffuzni yaxshilash yo'llari:



Talaffuz muammolarini bartaraf etishda birinchi navbatda tinglash ko'nikmasini rivojlantirish muhim. Talabalar ingliz tilidagi audio va video materiallarni muntazam tinglashlari lozim. Shuningdek, fonetik transkripsiyadan foydalanish, so'zlarni lug'atdan tekshirib o'rganish samarali natija beradi. Oyna qarshisida mashq qilish, minimal juftliklar (**ship-sheep**, **think-sink**) bilan ishlash ham talaffuzni yaxshilashda katta yordam beradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, o'zbek talabalari uchun inglizcha talaffuzdagi asosiy muammolar fonetik tizimlar farqi, unli va undosh tovushlar, urg'u hamda intonatsiya bilan bog'liqdir. Bu muammolarning asosiy sababi ona tilining kuchli ta'siri va yetarli fonetik mashqlarning yo'qligidir. Agar talabalar muntazam ravishda tinglash, takrorlash va amaliy mashqlar bilan shug'ullansalar, talaffuzdagi xatolar sezilarli darajada kamayadi. Natijada ularning og'zaki nutqi ravon, tushunarli va tabiiy bo'lib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zokirova G. Ingliz fonetikasi asoslari. Toshkent davlat pedagogika universiteti
2. Toshkent. 2018. 1-45 betlar.
3. Xudoyberdiyev M. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. Samarqand davlat chet tillari institute. Samarqand. 2020. 1-50 betlar.
4. Boymurodova G. I. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. Shahrisabz davlat pedagogika institute. Shahrisabz. 2024. 29-34 betlar.
5. Savranboyeva Sh. X. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. Tadqiqotlar.uz ilmiy jurnali Toshkent. 2024. 38-44 betlar.
6. Toshtemirova O. Ingliz tili o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari Pedagoglar.org ilmiy portal. Yakkabog' tumani. 2024. 80-84 betlar.
7. Almuradova, D. M., Mukumova, D. I., & Turaeva, X. K. (2022). Karlibaev AO
8. Modern endocrine therapy in locally advanced estrogen or progesterone receptor- positive breast cancer. Образования и наука в XXI веке, 24(2), 773-780.
9. Juraev, M. D., Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., & Gaziev, L. T. (2023). Androgen receptor values for prediction of survival of patients with three times negative breast cancer. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 8(6), 104-106.